

## G'AFUR G'ULOMNING NASRIY ASARLARI O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING AJOYIB NAMUNALARI SIFATIDA

**Xudoyqulova Matluba Raxim qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti boshlang'ich  
ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Suvonqulova Zarina Habibullo qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti boshlang'ich  
ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada G'afur G'ulomning nasriy asarlari va bu asarlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida mulohaza va muhokamalar berildi. Ishning tadqiqot obyekti sifatida yozuvchining "Shum bola", "Netay", "Yodgor" qissalari tanlab olindi.*

**Kalit so'zlar:** *G'afur G'ulom ijodi, nasr, qahramon ruhiyati, qissa, hayotiy epizod, psixologik kechinma.*

**Abstract:** *This article discusses the prose works of Gafur Ghulam and their importance today. The writer's short stories "Shum bola", "Netay", "Yodgor" were selected as the research object of the work.*

**Keywords:** *Ghafur Ghulam's creativity, prose, hero's psyche, short story, life episode, psychological experience.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются прозаические произведения Гафура Гулама и их значение сегодня. Объектом исследования работы были выбраны рассказы писателя «Шум бола», «Нетай», «Ёдгор».*

**Ключевые слова:** *Творчество Гафура Гулама, проза, психика героя, новелла, жизненный эпизод, психологический опыт.*

### KIRISH

G'afur G'ulom faqat she'riyat bilan cheklanib qolmay, sovet davridagi adolatsizlikni kelajak avlodga yetkazish uchun bir qancha hikoyalar va qissalar ham yaratgan. Ulardan "Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Shum bola" (1936-1962) qissalari va "Shariat nayranglari" (1930), "Mening o'g'rigina bolam" (1965) hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliyligimiz tavsirlangan. Ijodkorning "Shum bola" asari sovet tuzumi davridagi adolatsizliklarni hamda o'sha davr aholisining turmush tarzini ochiqchasiga ko'rsatib bergan.

G'afur G'ulom yaratgan nasriy asarlarining aksariyati insoniy munosabatlarga bag'ishlangan. U o'z asarlarida qo'yadigan va hal qiladigan asosiy muammolar insonning axloqiy tarbiyasi, uning madaniy va ma'rifiy rivojlanishi uchun intilishdir.

Adib asarlarining bosh obrazi – bu inson. Uning kechinmalari, taqdiri silsilasi, o'y-xayollari, turli xil voqealar girdobidan chiqishi, har bir holatda o'zini shaxs sifatida

namoyon qilishi... bularning bari barchasi inson psixologiyasini keng idrok qilishga, uni tahliliy asosda o'rganib, mulohaza yuritishga turtkilaydi. [1]

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

G'afur G'ulomning "Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Shum bola" (1936-1962) qissalari va "Shariat nayranglari" (1930), "Mening o'g'rigina bolam" (1965) hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliyligimiz tavsirlangan. Urush yillarida G'afur G'ulom "Sen yetim emassan", "Seni kutyapman, o'g'lim!", "Vaqt", "Kuzatish", "Ayol", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" kabi ajoyib she'rlar yaratgan. "Seni kutyapman, o'g'lim!" she'rida shoir front ortida o'zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g'alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi.

G'afur G'ulom – mohir psixolog-yozuvchilardan biri bo'lgan desak hech adashmaymiz, chunki adibning har bir asarida, deylik, "Netay", "Yodgor", "Shum bola", "O'g'rigina bolam" qissalarida ijodkor qahramonlar ruhiyatini prozada mohirlik bilan tadqiq qilgan.

G'ulom o'zi yaratgan asarlarda xalq hayoti, tarixi, madaniyati, turli ijtimoiy qatlamga mansub kishilarning ruhiy olami va nutqini yorqin ifoda etgan. Yuqorida qayd etilgan asarlar qatorida yozuvchining "Shum bola" qissasini – inson psixologiyasining eng keng qamrovli talqini sifatida o'rganishimiz mumkin. Bir qarashda hazilomuz tuyulgan mazkur qissa zamirida hayotiy muammolar, o'sha davr kishilarining turmushi yaqqol aks etgan. Bosh qahramon obrazida turmushning achchiq sinovlari, uni turli xil holatlarga tushib qolishi va shumligi sababli osongina chiqib ketishi, o'zining "zukkoligi" har qanday vaziyatda o'smir bolaning hayotiy muammolarni yengib ketishi ko'rsatilgan. Mazkur asar qaysidir ma'noda – adibning bolalikdagi xotiralarini qamrab olgandek tuyulsa, aslida unda o'sha davr milliy hayot tarzi ifodasi, umuminsoniy qadriyatlar va qarashlar o'z aksini topgan. Voqeaband holatlarda milliy an'analarda saqlangan o'yinlar, urf-odatlar, qadimgi qo'shiqlarimiz, joylarning o'ziga xos tasviri to'liq ifodalangan. Asarda ishtirok etgan har bir qahramonning o'ziga xos o'rni bor, har biri bir turkum individ – o'z xarakteri, hayotiy epizodi, ruhiy kechmishlariga boy. [1]

#### MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

"Shum bola" qissasini – inson psixologiyasining eng keng qamrovli talqini sifatida o'rganishimiz mumkin. Bir qarashda hazilomuz tuyulgan mazkur qissa zamirida hayotiy muammolar, o'sha davr kishilarining turmushi yaqqol aks etgan.

Asarda voqealar tasviri shu qadar oddiy va sarguzashtga mos ravishda ifodalanganligi bois – bir nafasda o'qiladi:

"Rastalar obod. Qaymoq bozorining burilishida mahkamaning boshida Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi bo'lib, unda grammofon chalinadi. Turli-tuman plastinkalar orqali To'ychi hofiz, Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz va Farg'ona yallachi xotinlari ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi. Choyxonada joy yetishmaydi. Uzun rasta, juhud rasta, attorlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo'sh

vaqtlarida bu choyxonaga yig'ilib mehmonxonalardek -o'rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista bodom, murabbo-nisholda, obinon, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchaqlashib o'tirishadi. Ba'zi boyvachchalarning dasturxonida qorniga qaldirg'och surati solingan, ustiga poxoldan to'r to'qilgan konyaklar ham ko'rinar edi. Bu choyxonaga bozor-o'charga sang'ib tushib qolgan dehqon, kambag'al kosib, qozoq, qirg'iz va boshqa oddiy fuqaro kirolmas edi. Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi. Ustida oldi ochiq yaktak, oyog'ida qala kavush, zangori shohi qiyiq bog'lagan, yelkasiga xolparang ro'mol tashlagan xushfe'l yigit edi..”

Xalqchil tilda yozilgan bu qissa - o'sha davr voqealarini ko'z o'ngimizda gavdalanishiga sabab bo'ladi - qaymoq bozorining burilishi, Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi, uzun rasta, juhud rasta, attorlik va boshqalar. Bari o'sha davr manzarasini yaqqol namoyish etadi. [1]

G'afur G'ulom qisqa, o'tkir syujetli hikoyalar ustasi sifatida ham taniqli bo'lib, hikoya uslubi o'rnida u yozuvchining savol-javoblari bilan to'ldirilgan jonli do'stona bahs-munozara shaklida, mualliflik nutqi va kitobxonga erkin yuzlanish orqali foydalanadi. G'ofur G'ulom tomonidan 30-yillarda yaratilgan ko'plab nasriy asarlar yangi insoniy munosabatlarga bag'ishlangan. U asarlarida yoritgan asosiy muammo va yechimlar - bu insonning axloqiy tarbiyasi, uning ma'naviy va madaniy rivoji sari kurashdir. Muallif o'zining nasriy asarlarida yorqin ijobiy timsollar yaratadi.

“Netay” qissasi — keng ijtimoiy umumlashmalarga boy ajoyib asar. Syujet asosiga haqiqiy voqea qo'yilgan. So'nggi Buxoro amiri Peterburgga safari chog' Toshkentda to'xtaydi. Amir mamnun va xursand bo'lishi uchun boylar hamma narsa qiladi. Uning huzuriga ermak uchun Netay ismli qizni keltirishadi. Oddiy ishchilar timsoli yoqimli tarzda ifodalangan - urug'lar va ularning ayollari hayotning qiyinchiliklariga qaramay, ma'nau boy va juda ta'sirchan bo'lgan Netay ismli o'n yashar qizni boqib olishadi. Qissada G'afur G'ulomning o'ta serqirraligi va iqtidorining moslashuvchanligi va nasr texnikasidan mohirona foydalana olishi namoyon bo'lgan. [2]

“Yodgor” qissasidagi katta qalb egasi bo'lmish ijobiy qahramon Jo'ra begonaning farzandini tarbiyalaydi. Aynan oddiy insonning begona bolaga bo'lgan munosabati orqali muallif Jo'raning yuqori axloqiy darajasini ko'rsatib bergan.

G'afur G'ulom ko'plab asarlarini bolalarga bag'ishlagan. Bizga ma'lum-u mashhur bo'lgan “Shum bola” hikoyasi nisbatan omadli hisoblanadi. Qahramon o'zining fojiali hayoti haqida o'zi so'zlaydi. Bola uyidan mahsulotlarni olib chiqib ketayotgan vaqtda onasi jazolaganligi tufayli, uyidan xolasinikiga qarab qochadi. Ammo, bu yerda ham bolaning omadi kelmaydi: u tasodifan tog'asining bedanasini o'ldirib qo'yib, bu uydan ham ketadi. Shunday qilib, u darbadar va o'voralik qilishni boshlaydi. Yozuvchi o'z e'tiborini shum bolaning xavotirlari va ichki kechinmalarini tasvirlashga qaratadi. Tashqi hodisalar, narsalar va kichik qahramonni o'rab turgan barchasini tasvirlash inson tuyg'ularini chuqur namoyon qilishda xizmat qiladi. Bunga barchasi bo'ysunadi voqea bayonotining nuqtai-nazari, manzara va asarning timsoliy negizi. G'afur

G'ulomning ushbu asari kinolashtirilgan hamda hozirda ham sevib tomosha qilinadigan retro kino hisoblanadi. [2]

### **XULOSA**

Adib asarlaridagi doimiy bosh obrazi – bu inson. Uning kechinmalari, taqdiri silsilasi, o'uy-xayollari, turli xil voqealar girdobidan chiqishi, har bir holatda o'zini shaxs sifatida namoyon qilishi... bularning bari barchasi inson psixologiyasini keng idrok qilishga, uni tahliliy asosda o'rganib, mulohaza yuritishga turtkilaydi.

G'afur G'ulom – mohir psixolog-yozuvchilardan biri bo'lgan desak hech adashmaymiz, chunki adibning har bir asarida, deylik, “Netay”, “Yodgor”, “Shum bola”, “O'g'rigina bolam” qissalarida ijodkor qahramonlar ruhiyatini prozada mohirlik bilan tadqiq qilgan.

### **LITERATURE:**

1. Aziza Oripova. G'afur G'ulom asarlari – hayot maktabi. “Inson huquq va erkinliklari kafolati” // 2020.
2. S.U.Mamatkulova. G'afur G'ulom qissalarida davr va shaxs talqini. // Вестник магистратуры. 2022. № 3-2 (126)
3. Гафур Гулом. Ёдгор. Тошкент. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1989.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.tafakkur.net](http://www.tafakkur.net)